3. Qisqartma shaklidagi velosiped poreyonimlari. Bunday nomlar bir yoki bir necha so‘zning bosh harflari, qisqartirilgan komponentlari yoki harf-raqam kombinatsiyalari asosida hosil qilinadi. Bunday nomlash usuli zamonaviy velosiped sanoatida keng qo‘llanilib, model nomining ixchamligi, oson esda qolishi va xalqaro bozorda tez tanilishiga xizmat qiladi. Masalan, *Emonda SL 6, Madone SLR 9, XTC SLR 29, Scale RC 900, Fuel EX 8, Marlin 7 Gen 3, FX 3, Top Fuel 9.8.*

Qisqartma shaklidagi poreyonimlar, odatda, modelning texnik xususiyati, ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llanilgan texnologiya yoki mahsulot oilasini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, *SL* (Super Light) velosipedining yengil konstruksiyaga ega ekanligini bildiradi. *SLR* (Super Light Racing) esa sport musobaqalari uchun mo‘ljallangan yuqori darajadagi yengil modelni anglatadi. *RC* (Racing Concept) qisqartmasi poyga uchun ishlab chiqarilgan velosipedni ifodalaydi. *EVO* (Evolution) modelning takomillashtirilgan yoki yangi avlodga mansubligini bildiradi.

Velosiped poreyonimlarida harf va raqamlarning birgalikda qo‘llanilishi ham keng uchraydi: *FX 3, SL 7, XTC SLR 29, RC 900, Emonda SL 6* kabi nomlarda harflar modelning texnologik darajasini, raqamlar esa modifikatsiyasi, avlodi yoki texnik komplektatsiyasini ifodalaydi.

Qisqartma shaklidagi poreyonimlar murakkab texnik nomlarni ixchamlashtirib, xalqaro bozorda brend va modelning tez tanilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular xaridorga velosipedning texnik darajasi va funksional imkoniyatlari haqida qisqa, ammo muhim axborotni yetkazadi.

Kevin Lane Kellerning fikricha kuchli brend nomi iste’molchi xotirasida oson saqlanishi, tez tanilishi va raqobatchi mahsulotlardan aniq foydalanishi lozim. Shu sababli zamonaviy velosiped ishlab chiqaruvchilar model nomlarida qisqartmalardan keng foydalanadilar. Bunday qisqartmalar modelning texnik darajasi va funksional xususiyatlarini ifodalash bilan birga, uning xalqaro bozordagi identifikatsiyasini ham kuchaytiradi.[1]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi velosiped poreyonimlarida qo‘shma va qisqartma modellar o‘zbek tilidagiga nisbatan faolroq qo‘llaniladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida o‘zbek va ingliz tillaridagi velosiped poreyonimlarining strukturaviy hamda leksik-semantik xususiyatlari aniqlandi. Velosiped model nomlarining asosan sodda, qo‘shma va qisqartma shakllarda qo‘llanishi hamda ularning semantik motivatsiyasi nomlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Mazkur tadqiqot natijalari transport onomastikasi, qiyosiy tilshunoslik hamda zamonaviy nomshunoslik bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
(2). Hough C. (Ed.). (2016). The Oxford Handbook of Names and Naming. Oxford: Oxford University Press.
(3). Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
(4). https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english

Qodirova Naziraxon Murodbek qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti mustaqil izanuvchisi)

ILMIY DISKURSDA PERSUAZIVLIKNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilmiy diskursda persuazivlikni ifodalovchi asosiy lingvistik vositalar tahlil qilinadi. Ilmiy matnlarda persuazivlikning obyektivlik tamoyili bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi, muallifning ilmiy pozitsiyasini asoslashda modal birliklar, argumentativ bog‘lovchilar, enonsiativ vositalar, inkor shakllari, ilmiy etos va intertekstual vositalarning o'rni yoritiladi. Tadqiqotda J. Swalesning CARS modeli hamda O.Dyukro va J.-C.Anscombrning argumentatsiya nazariyasiga tayanilib, fransuz va o‘zbek ilmiy diskursida qo‘llaniladigan persuaziv birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy diskurs, persuazivlik, lingvistik vositalar, argumentatsiya, modal birliklar, argumentativ bog‘lovchilar, enonsiatsiya, inkor shakllari, ilmiy etos, CARS modeli, lingvopragmatika, fransuz tili, o‘zbek tili.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ПЕРСУАЗИВНОСТИ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются основные лингвистические средства выражения персуазивности в научном дискурсе. Анализируется взаимодействие объективности научного изло-*

[1] Keller K.L. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. Harlow: Pearson Education Limited, 2013, p. 147–149.

жения и языковых механизмов убеждения, а также роль модальных средств, аргументативных коннекторов, энонсиативных единиц, отрицательных конструкций, научного этоса и интертекстуальности в формировании авторской позиции. Исследование основано на модели CARS Дж. Суэйлза и теории аргументации О.Дюкро и Ж.-К.Анскомбра. На материале французского и узбекского научного дискурса проводится сопоставительный лингвопрагматический анализ персуазивных средств.

Ключевые слова: *научный дискурс, персуазивность, лингвистические средства, аргументация, модальность, аргументативные коннекторы, энонсиация, отрицание, научный этос, модель CARS, лингвопрагматика, французский язык, узбекский язык.*

LINGUISTIC MEANS EXPRESSING PERSUASIVENESS IN SCIENTIFIC DISCOURSE

Annotation. *This article examines the main linguistic means of expressing persuasion in scientific discourse. It analyzes how persuasive strategies coexist with the principle of objectivity in academic writing and explores the role of modal markers, argumentative connectors, enunciative units, negative constructions, scientific ethos, and intertextuality in constructing the author's position. The study is based on J. Swales' CARS model and the argumentation theory developed by O. Ducrot and J.-C. Anscombre. A comparative linguopragmatic analysis of persuasive devices used in French and Uzbek scientific discourse is conducted.*

Keywords: *scientific discourse, persuasion, linguistic means, argumentation, modality, argumenttative connectors, enunciation, negation, scientific ethos, CARS model, linguopragmatics, French language, Uzbek language.*

Kirish. Ilmiy diskurs, ayniqsa, turli sohalarga oid ilmiy diskurs, o‘zining neytralligi va obyektivligi bilan tavsiflanadi. Chunki bunday diskurs muallif yoki uning ilmiy jamoasi tomonidan olib borilgan kuzatuv va tahlillar natijalarini xolis hamda aniq tarzda bayon etishga qaratilgan. Shu bois tadqiqot natijalari muallifning shaxsiy aralashuvi mahsuli sifatida emas, balki o‘z-o‘zidan dalillarga asoslangan ilmiy xulosalar sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Mazkur nuqtayi nazarga ko‘ra, ilmiy matn muallifi asosiy e’tiborni faktlar va tadqiqotning o‘ziga qaratishga, o‘zining shaxsiy ishtirokini esa imkon qadar cheklashga intiladi. Buning yaqqol dalili sifatida, bir tomondan, ilmiy maqolalarda, ayniqsa tabiiy va aniq fanlarda, IMRAD (Introduction–Methods–Results–and Discussion) tuzilmasiga qat’iy amal qilinishi, ikkinchi tomondan esa sintaktik xususiyatlarda birinchi shaxs birlik va ko‘plik olmoshlarining deyarli qo‘llanmasligi, buning o‘rniga majhul nisbatdagi fe’llar, shaxssiz konstruksiyalar va nominalizatsiyalarning ustunligi keltiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Persuazivlikni ifodalovchi lingvistik vositalar, asosan, ilmiy maqolaning *Kirish, Natija va xulosalar* qismidagi «ilmiy bo‘shliqni shakllantirish bosqichiga xosdir. J.Svales ilmiy maqolalar kirish qismining ritorik tuzilishini tavsiflar ekan, CARS (Create a Research Space) modelini yaratib, unga ko‘ra, ushbu bo‘limni uch bosqichga bo‘ladi: a) tadqiqot maydonini belgilash; b) ilmiy bo‘shliqni shakllantirish; d) ushbu bo‘shliqni egallash.

Tadqiqot maydonini belgilash bosqichida muallif o‘rganilayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berishi zarur. Bunga u tadqiqot yo‘nalishining markaziy ahamiyatini ta’kidlash, mavzu bo‘yicha umumlashtiruvchi fikrlarni bayon etish hamda shu sohaga oid avvalgi ilmiy tadqiqotlarni tahliliy ko‘rib chiqish orqali erishadi.

Ilmiy maqolaning «tadqiqot maydonini belgilash» (*établir le territoire*) bosqichida muallif o‘z tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatishi zarur. Bunga u "...tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash, mavzu bo‘yicha umumlashtiruvchi fikrlarni bayon etish va avvalgi tadqiqotlarni tahliliy ko‘rib chiqish"[5] tamoyiliga amal qilish orqali erishadi.

Masalan, fransuz tilida: *«Ainsi, par exemple, dans la section Introduction des articles de recherche, l'apparition des formes de la négation [...] et l'occurrence de certains connecteurs argumentatifs mettent clairement en évidence la présence du sujet de l'énonciation»* (Maria Marta Garcia Negroni, John Humbley. Termes techniques et marqueurs d’argumentation: pour débusquer l’argumentation cachée dans les articles de recherche // Open Edition. ASp, 2004, p. 45–46). O‘zbek tilida: *Pragmatik tadqiqotlarda asosiy e’tibor til birligining kontekst, nutk vaziyati, til egalarining voqelik haqidagi umumiy bilimlari va til ko‘nikmalari kabi omillar bilan bog‘liq jihatiga qaratiladi. Hatto kishilar o‘rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi nutkiy etiketlar, nutqning ijtimoiy xoslanishi, ifodaning subyektiv modalllik aspektiga aloqador kirish, baho bildiruvchi so‘z va vositalar, insonning ichki holatini ifoda etuvchi diskurs hamda presuppozisiya hodisasi ham pragmatikaning o‘rganish obyekti hisoblanadi* (Abduqodirova Sh., Toyirova G. She'riy matnlarda biriktiruv bog‘lovchilarining pragmatik imkoniyatlari, https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.archive.29804)

Ikkinchi bosqichda esa muallif «ilmiy bo'shliqni shakllantirish» (*établir une niche*) vazifasini bajaradi. J.Swales ta'kidlaganidek, bu «...qarama-qarshi ilmiy nuqtai nazarni ilgari surish, mavjud tadqiqotlardagi ilmiy bo'shliqni ko'rsatish, yangi ilmiy savolni qo'yish yoki mavjud ilmiy an'anani davom ettirish» [5] yo'li bilan amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, tadqiqotchi avvalgi ishlardagi kamchiliklarni ko'rsatadi, hal qilinmagan masalalarni belgilaydi, yangi ilmiy savollarni ilgari suradi yoki mavjud ilmiy an'anani davom ettiradi. Quyidagi misollar ushbu vaziyatni turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi: 1. Ilmiy bo'shliqni ko'rsatish: «*Peu de travaux se sont intéressés aux mécanismes linguistiques de la persuasion dans le discours scientifique*» (R.Amossy. La présentation de soi. Ethos et identité verbale. Paris, Presses Universitaires de France, 2010.) «*Keksalar diskursi tilshunoslikda maxsus tadqiqot yo'nalishi sifatida oxirgi yillarda alohida e'tibor qaratilayotgan soha hisoblanadi. Chunki yosh omili nutqning mazmuniy, uslubiy va pragmatik xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi*». (Axrorova R.U. Yoshga oid diskursning leksik xususiyatlari. «Qo'qon davlat Pedagogika instituti ilmiy xabarlari», 2025, 11-son, 94–99-betlar). 2. Muammoni qo'yish: «*La question de l'objectivité du discours scientifique reste largement débattue*» (Grossmann F. (2010). L'écriture scientifique: entre objectivité et subjectivité. Lidil, 41. https://journals.openedition.org/lidil/3027) «*Mazkur bo'limda yoshga qarab farqlanadigan diskurs turlarining leksik xususiyatlari, ya'ni* ***bolalar, o'smirlar, yoshlar, yetuk yoshdagilar*** *va* ***keksalar*** *diskursida kuzatiladigan lug'aviy birliklar, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi*» (Axrorova R.U. Yoshga oid diskursning leksik xususiyatlari. «Qo'qon davlat Pedagogika instituti ilmiy xabarlari», 2025, 11-son, 94–99-betlar). 3. Qarama-qarshi fikr bildirish: «*Contrairement à une idée largement répandue, le discours scientifique n'est pas dépourvu de visée argumentative*» (Maria Marta Garcia Negroni & John Humbley (2004). Termes techniques et marqueurs d'argumentation: pour débusquer l'argumentation cachée dans les articles de recherche. AS, p, 45–46.) «*Boshqa so'z bilan aytganda, ilmiy diskurs ilmiy muloqat akti bo'lib, uning natijada izchil yozma yoki og'zaki nutqiy asar hosil bo'ladi, ilmiy matn esa ilmiy diskurs va uning modelining mahsuloti hisoblanadi*».

Tahlil va natijalar. Keyingi bosqichda esa muallif tadqiqotning maqsadi va vazifasini bayon qiladi, qo'llanilgan asosiy metodlarni ko'rsatadi yoki maqolaning tuzilishini tavsiflaydi. Masalan: Tadqiqot maqsadini ifodalash: fransuz tilida: «*Cet article se propose d'analyser les caractéristiques linguistiques du discours scientifique*». (F.Grossmann. L'écriture scientifique : entre objectivité et subjectivité. Lidil, 2010, p. 41). O'zbek tilida: «*Diskursni tahlil qilish, ayniqsa, ilmiy muhitda jamiyatdagi kuch va hokimiyatni qanday aks ettirishini tushunishga imkon beradi, bu esa ilmiy qarorlar qabul qilish va amaliyotlar haqida yanada kengroq tushuncha hosil qilishda yordam beradi*. Tadqiqot vazifasini ifodalash: «*Nous nous proposons d'examiner le fonctionnement des marqueurs discursifs dans les écrits scientifiques*» (A.Tutin. Autour du lexique et de la phraséologie des écrits scientifiques. Revue française de linguistique appliquée, XV(2). 2010*) « lmiy matn aniq maqsadga yo'naltirilgan va o'ziga xos morfologik hamda pragmatik xususiyatlarga ega bo'lgan aloqa vositasidir. Uning asosiy vazifasi – obyektiv haqiqatni aks ettirish, yangi bilimlarni yaratish va mavjud bilimlarni sistemalashtirishdan iborat".*

O.Dyukro va J-C.Anskombr konsepsiyasiga tayangan holda uch xil inkor turi ajratiladi:

a) tasviriy inkor (*la négation descriptive*): hodisa yoki holatning mavjud emasligini xolis tarzda bildiradi, unda boshqa fikrga qarama-qarshilik yoki bahs elementi kuzatilmaydi;

b) polemik inkor (*la négation polémique*): oldindan mavjud bo'lgan yoki nazarda tutilgan fikrni rad etishga xizmat qiladi. Unda qarama-qarshi pozitsiya bilan bahs mavjud bo'ladi;

d) metalingvistik inkor (*la négation métalinguistique*): fikrning mazmunini emas, balki qo'llangan so'z, termin yoki ifoda shaklini rad etadi yoki tuzatadi [1].

Xulosa. Fransuz va o'zbek ilmiy diskursida ayniqsa **polemik inkor** va **metalingvistik inkor** persuaziv birliklar sifatida qo'llanilib, bunda polemik inkor muallifga avvalgi ilmiy qarashlarni tanqidiy baholash imkonini bersa, metalingvistik inkor termin yoki tushunchani aniqlashtirish orqali ilmiy dalillarning aniqligi va ishonchliligini kuchaytirishga xizmat qilishi kuzatildi. Tasviriy inkor ilmiy diskursda obyektiv axborotni ifodalash vazifasini bajarishi bilan ahamiyatli sanaladi.

O.Dyukroning polifonik enonsiatsiya nazariyasiga ko'ra, tasviriy inkor voqelik holatini ifodalovchi inkor bo'lib, bunda muallif o'z fikrini boshqa bir nutqqa qarshi qo'ymaydi. Muallifning ta'rificha, bu muallif o'z fikrini qarama-qarshi nuqtai nazarga zid qo'ymasdan, voqelikdagi muayyan holatni ifodalashga xizmat qiladiga turidagi inkordir [4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Anscombre J.-C., O.Ducrot. 1977, Deux mais en français? Lingua 43, p. 23–40.

(2). Amossy R. L'argumentation dans le discours. Paris, 2021.

(3). Abduganiyeva Z.A. Ilmiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari. Unique features of scientific discourse. SCIENCEPROBLEMS.UZ-“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” №10(4), 2024, 202–205-bet.

(4). Ducrot O. Les modificateurs déréalisants. Journal of Pragmatics, 24/1–2, 1995, p. 145–165.

(5). Swales J. 1990. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge, Cambridge University Press, p. 141.

(6). Kocourek R. 1991 [1982]. La langue française de la technique et de la science. Vers une linguistique de la langue savante (2e éd. augmentée). Wiesbaden/Paris, Brandstetter Verlag.

Xasanova Yulduz Muxtor qizi (Navoiy davlat universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); yulduzxasanova025@gmail.com; https://orcid.org/0009-0001-1051-3489)

ZAMONAVIY INGLIZ MOTIVATSION DISKURSIDA PERSUAZIV LINGVOPRAGMATIK MEXANIZMLAR

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ingliz motivatsion diskursidagi persuaziv lingvopragmatik mexanizmlar to‘rt yetakchi muallif, ya’ni, S.R.Koveyning “The 7 Habits of Highly Effective People”, J.Klirning “Atomic Habits”, B.Braunning “Daring Greatly” va K.Dvekning “Mindset” asarlari materialida qiyosiy tahlilga tortilgan. Tadqiqotning nazariy asosini J.Sirl illokutiv aktlar taksonomiyasi, F.R.Palmer modallik tipologiyasi hamda G.Leykof va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi tashkil etadi. Empirik korpus yuz oltmish sakkiz diskurs fragmentini qamrab olgan bo‘lib, har bir muallif korpusining illokutiv profili, modallik dominanti va metaforik domenlari qiyoslangan. Tadqiqot natijalari to‘rt mualliflik diskursning o‘zaro to‘ldiruvchi persuaziv paradigmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *motivatsion diskurs, lingvopragmatika, persuaziv strategiya, illokutiv akt, modallik, konseptual metafora, S.R.Kovey, J.Klir, B.Braun, K.Dvek.*

Хасанова Юлдуз Мухтор кизи (доктор философии (PhD) по филологическим наукам, исполняющая обязанности доцента Навоийского государственного университета)

ПЕРСУАЗИВНЫЕ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ МОТИВАЦИОННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье на материале произведений С.Р.Кови “The 7 Habits of Highly Effective People”, Дж.Клира “Atomic Habits”, Б.Браун “Daring Greatly” и К.Двек “Mindset” сравнительно анализируются персуазивные лингвопрагматические механизмы современного английского мотивационного дискурса. Теоретической основой исследования выступают таксономия иллокутивных актов Дж.Сёрла, типология модальности Ф.Р.Палмера, а также теория концептуальной метафоры Дж.Лакоффа и М.Джонсона. Эмпирический корпус охватывает сто шестьдесят восемь дискурсивных фрагментов; в каждом авторском корпусе сопоставлены иллокутивный профиль, модальная доминанта и метафорические домены. Результаты показывают, что четырёх-авторский дискурс формирует взаимодополнительные персуазивные парадигмы.*

Ключевые слова: *мотивационный дискурс, лингвопрагматика, персуазивная стратегия, иллокутивный акт, модальность, концептуальная метафора, С.Р.Кови, Дж.Клир, Б.Браун, К.Двек.*

Khasanova Yulduz Mukhtor kizi (PhD in Philology, Acting Associate Professor, Navoi State University)

LINGUAPRAGMATIC MECHANISMS OF PERSUASION IN MODERN ENGLISH MOTIVATIONAL DISCOURSE

Annotation. *The article comparatively examines the persuasive linguopragmatic mechanisms of modern English motivational discourse on the material of four leading authors, namely S.R Covey’s “The 7 Habits of Highly Effective People”, J.Clear’s “Atomic Habits”, B.Brown’s “Daring Greatly” and C. Dweck’s “Mindset”. The theoretical basis of the study is constituted by J.Searle’s illocutionary act taxonomy, F.R.Palmer’s modality typology and G.Lakoff and M.Johnson’s conceptual metaphor theory. The empirical corpus covers one hundred and sixty-eight discourse fragments; the illocutionary profile, modality dominant and metaphorical domains of each author corpus are compared. The results show that the four-author discourse forms complementary persuasive paradigms.*

Keywords: *motivational discourse, linguopragmatics, persuasive strategy, illocutionary act, modality, conceptual metaphor, S.R.Covey, J.Clear, B.Brown, C.Dweck.*

Kirish. Zamonaviy ingliz motivatsion adabiyoti so‘nggi o‘ttiz-qirq yil davomida o‘zining yaqqol janriy chegaralari, tanish uslublari va barqaror lingvopragmatik mexanizmlariga ega bo‘lgan diskurs makonini shakllantirdi. Ushbu makonning mashhur vakillariga S.R.Kovey, J.Klir, B.Braun va K.Dvek kabi mualliflar kiradi. Ularning asarlari nafaqat mualliflik falsafalarini, balki o‘ziga xos bo‘lgan milliy-madaniyatni